MUSTAQILLIK ARAFASIDA MILLIY MADANIYAT VA SAN'AT TARIXINI TADQIQ ETILISHI SABABLARI MOHIYATI

Rustamova Gulchehra Komiljnovna
Namangan viloyati yuridik texnikumi "Ommaviy-huquqiy fanlar" kafedrasi o'qituvchisi
Kurbanov Ravshan Raimjonovich
Namangan Davlat Universiteti tarix fakulteti II kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada madaniyat tarixini o'rganish va mustaqillik-arafasida madaniyat va san'at tarixini tadqiq etilishi va milliy kino, teatr, muzey san'atining moddiy-texnik bazasi ular orqali o'tmishni, tarixni ko'rish, eslash, sezish, o'rganish va shuning bilan birga o'zbek xalq ijodining tiklanish va ravnaq topishi hususiyatlari yoritilgan

Kalit so'zlar: Madaniyat, san'at, raqs, maqom, baxshi, qaror, farmon, hujjat, islohot.

Annotation: This article describes the study of the history of culture and independence-the study of the history of mining and art on the eve, and the material and technical base of the art of National Cinema, Theater, Museum, through them, the material and technical base of the art of the Uzbek people is covered the features of seeing, remembering, perceiving, studying the past, history and, therefore, the revival and prosperity of Uzbek folk art

Keywords: Culture, art, dance, status, happiness, decision, decree, document, reform.

Mustamlakachilik va mustabid tuzum davrida madaniyatimiz katta zarar ko'rdi. Ayniqsa kommunistik mafkura maddohlari xalqimiz madaniyatini yo'q qilishga zo'r berdilar. O'zbek xalqi katta yo'qotishlarga qaramasdan o'zligini, o'z milliy madaniyatini saqlab qola bildi. Ma'naviy madaniyati yuksak, uning ildizlari baquvvat xalqning ijtimoiy ongidan shu xalq madaniyatini hech qachon tamomila yo'q qilish mumkin emas. Demak madaniy merosni tiklash, uni yanada yuksak darajaga ko'tarish uchun imkoniyat saqlab qolingan edi[185].

Sovet mustabid tuzumi davri madaniyati o'zining qarama - qarshi tomonlari va xususiyatlari bilan boshqa davrlar madaniy taraqqiyotidan farq qiladi. Bu davrning asosiy xususiyati hayotning barcha sohalari, jumladan, ma'naviy madaniyat sohasining kommunistik mafkuraga tobeligi bilan tavsiflanadi. Ma'lumki, milliy madaniyat milliy e'tiqod va milliy his-tuvg'ular asosida rivojlanadi[186]. Mustabid tuzumi davrida ana shu

[185] Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. —T.: Ma'naviyat, 2008. B.141

[186] Mansurov U., To'xtaboyev A. "O'zbekistonning madaniyati va sa'nati tarixi" O'quv qo'llanma TOSHKENT: "O'z kitob savdo nashryoti matbaa ijodiy uyi", 2021. B.146

xususiyat milliy madaniy taraqqiyot o’zani begona madaniy oqim tomonga burib yuborildi. Natijada milliy madaniyat o’zining hayotbaxsh manbayidan, milliy e’tiqod va his-tuyg’ularidan ajratib qo’yildi. Madaniy-tarixiy hodisa g’oyaviylashtirildi, hukmron mafkura va hukmron sinf manfaatlariga bo’ysundirildi va sotsialistik lagerga kirmaydigan begona davlatlar madaniy hayoti bilan milliy madaniyatlar o’rtasidagi tabiiy aloqadorlikka rahna solindi. Bu esa milliy madaniyatlarning umumbashariy madaniyatlardan uzilib qolishi va begonalashuviga olib keldi. Bu davrning salbiy tomoni badiiy ijodiy jarayonning bir qadar cheklanganligi bilan xarakterlanadi. Ijodiy erkinlik hukmron mafkura ko’rsatmasi asosida qurildi. Badiiy ijod shaklan milliy, mazmunan sotsialistik uslubda bo’lishi shart qilib qo’yildi. Bu esa avlodlardan avlodlarga qonuniy tarzda o’tuvchi yaxlit jarayonning buzilishiga sabab boldi.

Mazkur masalalar bo’yicha sovet davrida ko’plab asarlar yaratildi. Dissertasiyalar himoya qilindi. Ammo ularning bari bugungi kunning talabiga mutloqo javob bermaydi. Birgina misol keltirish mumkin: O’tgan asrning 80-yillarida O’zbekiston Yozuvchilar uyushmasining 700 yaqin a’zolari bor edi. Ularning barchalari tom-tom asarlar yaratdilar, davlat mukofotlari oldilar ushbu nasr asarlarning necha foizi bugungi kun talabiga javob berdi. Shu mazmunda qanchadan-qancha kino asarlari, spektakllar, qo’shiqlar yaratilmadi deysiz? Shu ma’noda o’sha davr madaniyati va san’ati tarixi “nazariyasi”ni mustaqillik talablari asosida o’rganish o’ta dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Ammo o’sha zamonni yoshlarimiz bilishi uchun bizga ko’proq kitoblar, darsliklar zarur. Shuning uchun tarixchi, san’atshunos, madaniyatshunos olimlar oldida turgan eng muhim vazifalardan biri mustaqillik davri madaniyati va san’atining nazariyasi va tarixini o’rganishdir.

Mustaqillik yillarida O’zbekistonda ilm-fan, madaniyat, sa’nat misli ko’rilmagan darajada rivoj topdi. Ushbu fonomen hodisalarning partiyaviylik, sinfiylik, g’oyaviylik kabi sohta unsurlardan tozalanishi oqibatida ularning jamiyat va millat taraqqiyotidagi o’rni va ijtimoiy ahamiyati jiddiy suratda oshdi. Ayniqsa, tarix faniga e’tiborning kuchayganligini alohida ta’kidlash lozim.

“Tarixni unutgan, undan to’g’ri saboq chiqarib yashamaydigan xalq doimo yo’ldan adashadi, - deb ta’kidlagan edi O’zbekiston Respublirasi birinchi Prezidenti I.Karimov. – Tarixiy xotirasiz kelajak yo’q, degan gapining ma’nosi shunda. Shu nuqtai – nazardan qaraganda, yaqin o’tmishimizda ro’y bergan voqealarni odamlarning, ayniqsa, yoshlarning esiga solib turish kerak, deb o’ylayman”. Masalaga shu taxlitda e’tibor berilishining qator sabablari bor. Birinchidan, sobiq mustabid tuzum davrida o’zbek xalqi, davlatchilik tarixi qo’pol ravishda buzib ko’rsatildi. Go’yoki o’zbek xalqi oktabr davlat to’ntarilishigacha savodsiz, madaniyatsiz bo’lgan emish. Ikkinchidan, milliy tariximiz bo’yicha yozilgan barcha asarlarda “millatchilikka urinish“ degan tamg’a bosildi. Bunday asarlarning mualliflari esa siyosiy qatog’onlarga duchor qilindi.Uchunchidan, sobiq sovet mafkurasi o’zbek xalqining

shonli tarixi madaniy rivojlanishi bilan uyg'un holda ro'y berganligini, ajdodlarimiz jahon sivilizatsiyasiga jiddiy hissa qo'shganliklarini aytishdan va uni e'tirof etishdan cho'chir edilar.

Shuning uchun ham mustaqillik yillarida o'zbek milliy tarixi, O'zbekiston xalqlari tarixini holisona ravishda o'rganishga ustuvor ahamiyat berildi. O'zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimov bu haqda shunday deydi: "Biz xalqni nomi bilan emas, balki madaniyati, sa'nati, ma'naviyati orqali bilamiz, tarixini tag-tomirigacha nazar tashlaymiz"[187]. Madaniyat va sa'nat aslida insoniyatning ilk ibtidoiy davrlarda yaratgan "g'oya" lari asosida shakllangan an'analardan iboratdir. Shu o'rinda alohida ta'kidlash lozimki, bunday an'ana dunyoning bir mintaqasida bir vaqtning o'zida, bir "zarb" bilan paydo bo'lmagan, shakllanmagan. Mazkur an'analar pirovard natijada insoniyatning ming-minglab yillar davomida paydo bo'lgan va shakllangan sivilizatsiyalari tarzida namoyon bo'ladi.

Qolaversa, bugungi kunda tarix, madaniyat va axloq masalalarini o'rganmasdan yangi zamonga kirish o'ta qiyin.

Axir faqatgina O'zbekistonning o'zida kitob fondlarida 100 mingdan ziyod qo'lyozma asarlar saqlanmoqda. Ularning asosiy qismi YUNESKOning Madaniy meros ro'yxatiga kiritilgan O'rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining qo'lyozmalari Yevropa va Osiyoning Buyuk Britaniya, Germaniya, Ispaniya, Rossiya, Fransiya, Misr, Hindiston, Eron va boshqa ko'plab mamlakatlardagi kutubxonalarning "Oltin fondi" ni tashkil etadi[188].

1991-yil 1-sentabr kuni O'zbekistonning Mustaqil deb e'lon qilinishi, Milliy istiqlolga erishuvimiz xalqimizning ma'naviyat va madaniyatini yanada yuksaltirish imkoniyatini berdi. Bu shunday bir ne'matki, ajdodlar tomonidan yaratilgan madaniy-ma'naviy merosga xalq milliy ruhiyati orqali nazar tashlashga, uning sarchashmalarini qalban his qila bilish, xalqona milliy va diniy e'tiqodlarga chuqur ehtirom ila qarash imkoniyatini yaratib berdi. Milliy istiqlol mohiyatiga tushunib yetilgan taqdirdagina kishilarda chin vatanparvarlik hissi uyg'onadi, nafaqat o'tmish madaniy merosini. balki zamonaviy, qolaversa, xalqning kelajak madaniyati va ma'naviyati masalalarini ham chuqurroq anglab yetish hissi paydo bo'ladi. Milliy istiqlol shunday qudratli kuchga egaki, o'z millati, xalqi va elatining taqdiri, madaniyati va milliy qadriyatlari uchun kurash har bir fuqaroning insoniy e'tiqodiga aylandi. O'z navbatida, milliy madaniyatning taraqqiyoti har bir insonning zamonaviy taraqqiyot oqimiga qo'shilib ketishiga yordam berdi. Istiqlolning dastlabki kunlaridanoq musiqa san'ati bo'yicha qator ko'rik-tanlovlar o'tkazila boshlandi. Xususan, 1992 yili Toshkent shahrida tanbur, sato, qo'shnay, surnay va boshqa milliy soz ijrochilarining "Asrlarga tengdosh navolar" deb nomlangan respublika ko'rik tanlovi, aprel oyida Toshkent viloyatida

[187] Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz - kelajak yo'q. – T.: Sharq, 1998. B.18
[188] Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. - T.: Ma'naviyat, 2008. B.140

havaskor qo’g’irchoq teatrlari jamoalarining ko’rik-tanlovi, shuningdek, mashhur san’atkorlar Jo’raxon Sultonov, Saidjon Kalonov, Komiljon Jabborov, Nabijon Hasanov, Komiljon Otaniyozov, Faxriddin Sodiqov, Janak Shomuratovlarning asarlari ijrochilarining “Boqiy ovozlar” deb nomlangan ko’rik-tanlovlari o’tkazildi. Shu yili Xorazm viloyatida folklor jamoalarining, askiya, qiziqchi va masxarabozlarning Qo’qonda o’tkazilgan IX an’anaviy ko’rik tanlovi, lapar, yalla ijrochilarining Toshkent shahrida o’tkazilgan XI an’anaviy ko’rik tanlovi milliy san’atimiz rivojiga katta hissa bo’lib qo’shildi.

Shu maqsadda 1995 yil dekabrda “O’zbekiston - Vatanim manim” mavzuyidagi qo’shiqlar ko’rik-tanlovi e’lon qilindi. Tanlov natijasida yuzlab yangi qo’shiqlar yaratildi, u xalq orasidan chiqqan ko’plab iste’dodli san’atkorlarning paydo bo’lishiga sabab bo’ldi. Har bir ijtimoiy tuzum o’zi uchun qulay madaniyat tizimini yaratadi[189].

O’zbekiston mustaqillikka erishgandan so’ng demokratik fuqarolik, odil jamiyat qurish maqsad qilib olindi. Madaniyat komil insonni shakllantirishga xizmat qila boshladi. Bu borada ulkan tarixiy va jahonshumul ishlar amalga oshirildi.

Jumladan:

— qadimiy tariximizning haqqoniy, chuqur va har tomonlama o’rganilishi, tarixiy mavzulardagi sovet davrida taqiqlangan asarlaming chop etilishi xalqimiz illiy-tarixiy ongini shakllantirishda muhim rol o’ynamoqda;

— shorolar davrida man qilingan yoki cheklangan madaniy qadriyatlar:

tarixiy xotira, milliy ong, milliy ruh, diniy e’tiqodlar, xalq odatlari, davlat tili, xalq ijodi, milliy o’yinlar, tarixiy me’morchilik san’ati, ko’pgina an’anaviy ijod turlari tiklandi;

xalq odatlari, marosimlari va bayramlari (Navro’z, Ro’za hayiti, Qurbon hayiti kabilar)ning tiklanishi va yangi bayramlar (Mustaqillik kuni! O’qituvchi va murabbiylar kuni, Xotira va qadrlash kuni kabilar)ning joriy etilishi xalq ma’naviy hayotiga yangi ruh va mazmun bag’ishlamoqda;

— diniy qadriyatlarning tiklanishi, eski machit va madrasalarning ta’mirlanishi, yangilarining barpo etilishi, diniy adabiyotlar nashr etiiishiga keng imkoniyatlar yaratilishi respublikamizda vijdon erkinligini ta’minlamoqda;

— o’zbek tilining davlat tili darajasiga ko’tarilishi dilni quvontirmoqda. O’z navbatida, jahon tillarini o’rganish ehtiyoji bizni olamga “yuz tutishimiz”ga, jahon hamjamiyatiga qo’shilishga, umuminsoniy qadriyatlarini yanada kengroq o’zlashtirishimizga yordam bermoqda; — xalq ijodi, milliy amaliy san’atimiz jonlanib, rivoj topib, vatandoshlarimiz va xorijliklarni lol qoldirmoqda. Xalq ijodi bo’yicha respublika va xalqaro anjumanlarning o’tkazilishi, ajdodlarimiz merosi, milliy-axloqiy madaniyat durdonalari yoshlarni tarbiyalashda muhim omil bo’lmoqda. Bu borada

[189] Mansurov U., To‘xtaboyev A. “O‘zbekistonning madaniyati va sa’nati tarixi” O‘quv qo‘llanma TOSHKENT: “O‘z kitob savdo nashryoti matbaa ijodiy uyi”, 2021. B.148

mamlakatimizda o’tkazilayotgan rang-barang tadbirlar, jumladan, xalq hunarmandchiligi va tasviriy san’at ko’riklari, oilaviy ansambllar va lapar ijrochilari tanlovlari, “Alla ijrochilarining tanlovlari, folklor-etnografik ansambllar festivallari. dorbozlar, an’anaviy sirk san’ati, qo’g’irchoq teatri jamoalarining ko’rik-tomoshalari, qadimiy qo’shiqlar, urf-odatlar va marosimlar namoyishlari kabi boshqa ko’plab anjumanlar vatanimizda xalqimizning boy ijodiy merosiga katta e’tibor berilayotganligidan dalolat beradi.

Mustaqillik tufayli Respublikamizda madaniyat sohasining yangi tizimi vujudga kela boshladi. Jumladan, Respublika “Ma’naviyat va ma’rifat” kengashi, “Ta’lim markazi”, “O’zbekkino”, “O’zbeknavo”, “O’zbekraqs”, “O’zbekmuzey”, “O’zbekteatr”, Badiiy akademiya, Milliy madaniy markazlar kabi ko’plab madaniy-ma’rifiy tashkilotlarning tuzilishi respublika ma’naviyati asosiy sohalarining ravnaq topishiga zamin bo’ldi.

Mustaqillik yillarida o’tkazilayotgan ko’rik-tanlovlar “Yangi avlod”, “Kelajak ovozi”, “Vatan yagonadir”, “Vatan bittadir”, “Yangi nomlar” va boshqa tanlovlaming o’z yo’nalishi, o’ziga xos maqsad va vazifalari bor

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009- yil 7-aprel PQ-1091-son “Yagonasan, muqaddas Vatan respublika ko’rik - tanlovini o’tkazish to’g’risida”gi Qarori mamlakatimiz madaniyati va san’ati, xususan, yoshlar ijodi ravnaqida muhim hodisa boldi. Bu ko’rik-tanlovning bosh maqsadi: millatimiz, xalqimiz, eng avvalo, ertangi kunimizning ishonchi bo’lgan yoshlarimiz qalbida o’z ona-Vataniga bo’lgan mehr va muhabbat, sadoqat tuyg’ularini uyg’otish, Vatanni sharaflaydigan, ulug’laydigan, qadr-qimmati, sha’ni, shavkatini ifodalaydigan mazmunan teran qo’shiqlar yaratish, shu bilan birga yoshlar orasidan iste’dod sohiblarini izlab topish va kashf etishdan iborat bo’ldi. Shu bois, ushbu ko’rik-tanlovni o’tkazib kelinayotgan barcha tanlovlarning umumlashmasi, desak mubolag’a bo’lmaydi. O’zbek madaniyatining xalqaro nufuzi osha boshladi. Eng avvalo, ajdodlarimiz merosini tiklash bo’yicha qilinayotgan keng ko’lamli ishlarimizni jahon hamjamiyati tan olmoqda. Bu boradagi olamshumul ishlarimizni o’rganish uchun dunyoning ko’pgina mamlakatiari, chunonchi, Amerika, Norvegiya, Gollandiya, Fransiya, Germaniya, Turkiya kabilardan tashrif buyurgan mutaxassis olimlar ham amalga oshirilayotgan ishlarga tahsin aytmoqdalar.

O’zbek san’ati jahonga tanilmoqda, ko’plab folklor jamoalari, jumladan. Toshkentning “Kamalak”, Andijonning “Sumalak”, Xorazmning “Meros” kabi folklor-etnografik ansambllari xorijiy mamlakatlarga tashrif buyurib, xalqaro anjumanlarda qatnashib, ajnabiylar e’tiboriga nodir san’atimiz durdonalarini havola etishmoqda. Chet ellarda o’zbek xalq madaniyati va ijodiga oid ko’plab kitoblar, maqolalar chop etilmoqda. O’zbek xalq ertaklari, maqollari, iboralari, afsonalarining Xitoy, Eron, Turkiya, Germaniya va AQSHda nashr etilgani quvonchli holdir.

Vatanimizda xalq madaniyatini taraqqiy ettirish borasida ulkan tarixiy ishlar amalga oshirilganligini butun jahon tan olmoqda. Shuni bemalol aytishimiz mumkinki, mustaqil O'zbekiston madaniyatining yangi mustahkam poydevori yaratildi[190].

Davlat tizimida yangidan tuzilgan ko'pgina tashkilotlar, masalan, "O'zbekteleradio" kompaniyasi, "O'zbekkino", O'zbekiston Badiiy Akademiyasi", "O'zbeknavo", "O'zbekteatr", "O'zbekturizm" kabilar samarali faoliyat ko'rsatishmoqda.

Shuningdek mustaqillik sharofati ila yangi tuzilgan jamg'armalar orasida Amir Temur nomidagi xalqaro xayriya jamg'armasi, "Sog'lom avlod uchun" xayriya jamg'armasi, "Kamolot" yoshlar jamg'armasi ijobiy natijalarga erishishdi[191]. Ijodiy tashkilotlar orasida esa yozuvchilar, bastakorlar, me'morlar uyushmalarining faoliyati diqqatga sazovordir.

Keyingi yillarda milliy madaniyatimiz va san'atimizni rivojlantirish maqsadida istiqlol yillarida amalga oshirilgan ishlarning mazmun-mohiyatini tanqidiy tahlil qilish, chuqur o'rganish va shu asosda boshqaruv tizimini qayta shakllantirish va takomillashtirish, bunda madaniyat va san'atning jamiyat siyosiy hayotida namoyon bo'lishi hamda xalqimiz turmush tarzida tutgan ulkan rolidan oqilona foydalanish kabi o'ta muhim jihatlarga alohida e'tibor qaratish lozimligi kun tartibining asosiy masalasi sifatida ko'rib chiqildi. Shunga ko'ra davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan Madaniyat va sport ishlari vazirligi tugatilib, Prezident Farmoniga muvofiq uning negizida O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport davlat qo'mitasi tashkil etildi. 2017-yil 16-avgustda "O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining Farg'ona mintaqaviy filialini tashkil etish to'g'risida" Prezident qarorining imzolanishi mamlakatimiz madaniyati va san'ati tarixida alohida ahamiyatga ega bo'ldi. 2017-yil 16-oktabrda "O'zbekiston Respublikasi Madaniyat

vazirligi huzurida Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamarmasini tashkil etish to'risida", 2017-yil 18-oktabrda "O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash to'g'risida", 2018-yil 27-iyunda "O'zbekiston davlat filarmoniyasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"[192]. Prezident Farmonlari imzolandi. 2017-yil 17-noyabr milliy madaniyatimiz solnomasining so'nggi to'rt yilligi tarixida unutilmas kunlardan biri bo'ldi. Xuddi shu sanada Prezident Sh.Mirziyoyev "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorni imzoladi. Ushbu qaror milliy madaniyatimiz timsollaridan biri bo'lgan maqom san'ati istiqboli borasidagi tarixiy hujjat bo'lib qolishi shubhasiz, albatta. Endi aslni soxtadan, haqiqiyni nusxadan ajratish vaqti keldi,

[190] Qoraboyev U., Soatov G'. O'zbekiston madaniyati ''Tafakkur- Bo'stoni'' TOSHKENT, 2011. B.168
[191] Qoraboyev U., Soatov G'. O'zbekiston madaniyati ''Tafakkur- Bo'stoni'' TOSHKENT, 2011. B.178
[192] Haydarov A. Madaniyat - milliy yuksalish poydevori. - Toshkent: Oltin meros press, 2021. B.478

oldi-qochdi, soxta qo’shiqchi-mashshoqlarning usulsiz kuylariga chek qo’yildi. Qarorda milliy maqom san’atini rivojlantirishning ma’naviy-axloqiy kamolotda tutgan o’rni, qadimiy milliy-ma’naviy qadriyatlar va an’analarni tiklash hamda boyitish, shuningdek, bozor munosabatlari sharoitida mumtoz san’atimiz taraqqiyotini davlat yo’li bilan qo’llab-quvvatlash kabi juda muhim masalalar qamrab olingani soha istiqbolida muhim ahamiyat kasb etdi. Mazkur qarorga asosan mumtoz qo’shiqchilik san’ati yo’nalishida to’planib qolgan kamchilik va muammolarni bartaraf etish, o’zbek maqom san’ati tarixini chuqur o’rganib, ilmiy-nazariy tadqiqotlar olib borish, o’quv-uslubiy adabiyotlar chop etish, o’ziga xos ijro maktablari va an’analarini yangi bosqichga ko’tarish, uning “oltin fondi”ni yaratish va boyitish, xalqaro nufuzini oshirish va keng targ’ib qilish maqsadida O’zbek milliy maqom san’ati markazi tashkil etildi. Har ikki yilda bir marta Shahrisabz shahrida Xalqaro maqom san’ati festivalini o’tkazish, “Eng yaxshi maqom xonandasi”, “Eng yaxshi maqom sozandasi”, “Eng yaxshi maqom ustozi”, “Eng yaxshi maqom targ’ibotchisi”, “Eng yosh maqomchi” kabi nominatsiyalar bo’yicha mukofotlar ta’sis etish kabi qator vazifalar Maqom markazi zimmasiga yuklandi. Mamlakatimizda 2018-yilda ham madaniyat va san’atni rivojlantirish borasida keng ko’lamli ishlar amalga oshirildi. 19-20-yanvar kunlari Surxondaryo viloyatiga tashrifi chog’ida Prezidentimiz SH.Mirziyoyev tashabbusi bilan yosh avlodni milliy ma’naviy qadriyatlarimiz, ona yurtga va ajdodlar merosiga yuksak sadoqat ruhida tarbiyalash, milliy madaniyatimizning noyob durdonasi bo’lgan baxshichilik va dostonchilik san’atini rivojlantirish maqsadida Termiz shahrida Baxshilar maktabi tashkil etildi. Milliy madaniyatimizning jon tomiri bo’lgan, avloddan-avlodga o’tib, sayqallanib, xalqimiz badiiy tafakkurining boy va eng qadimiy an’analari, so’nmas ohanglarini o’zida jamlagan, bir-biridan sara terma va dostonlarni butun salobati bilan asrlar davomida asrab-avaylab kelayotgan, ona yurtga sadoqat, mehr-muhabbat, birodarlik va qahramonlikni, mardlik va jasoratni tarannum etuvchi baxshichilik san’atini qayta tiklash va ommalashtirish maqsadida Prezidentimizning “Xalqaro baxshichilik san’ati festivalini o’tkazish chora-tadbirlari to’g’risida”gi (2018-yil 1-noyabr) va “Baxshichilik san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi (2019-yil 14-may) qarorlari madaniy hayotimizdagi ulkan tarixiy voqea bo’ldi. Madaniyat va san’at sohasining eng muhim yo’nalishlaridan biri hisoblangan muzeylar faoliyatini takomillashtirish, ularning infratuzilmasi va moddiy-texnik bazasini zamon talablari asosida mustahkamlash borasida ham qator meyoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, ularda belgilangan vazifalar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Hunarmandchilik Kengashining 2019-yilning 23-iyuldagi qaroriga ko’ra Qo’qon shahriga yog’och o’ymakorligi bo’yicha Hunarmandchilik shahri maqomi berilishiga sabab bo’ldi. Bungacha jahonning turli mamlakatlaridagi 35 ta shahargina mazkur maqomga sazovor ekan[193].

[193] To‘ychiyeva S. Madaniyat va san’atimiz rivojidagi zarsahifalar // Yangi O‘zbekiston gazetasi. - Toshkent: 2022. B.6

2020-yil 4-fevral o’zbek madaniyati va san’ati tarixida shonli va unutilmas kunlardan biri bo’ldi. Negaki, ayni shu kun bir kunda bir yo’la ikkita - “Milliy raqs san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-4584-son hamda “Raqs san’ati sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-4585-son qarorlarini imzolandi[194]. Mazkur hujjatlarda milliy raqs san’atida professional badiiy jamoalar faoliyatini kengaytirish, iqtidorli yoshlarni izlab topish va ularni tarbiyalash, baletmeysterlar va balet artistlarining yangi avlodini shakllantiradigan ijodiy laboratoriyalarni tashkil etish, ularning malaka va tajribasini oshirish kabi maqsadlar belgilanib, ularga erishish yo’llari aniq ko’rsatib berildi.

2021-yil 7-aprelda imzolangan “Kino san’ati va sanoatini yangi bosqichga olib chiqish, sohani davlat tomonidan qo’llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish to’g’risida”gi Prezident farmoni va “Kinematografiya sohasida davla boshqaruvi tizimini takomillashtirish hamda soha vakillarining ijodiy faoliyati uchun munosib sharoit yaratish to’g’risida”gi Qaroriga asosan o’tkazilgan “Ipak yo’li durdonasi” Toshkent xalqaro kinofestivali o’zbek kinosining jahon kinosi bilan sintezlashuvining aksi sifatida namoyon bo’ldi.

Jumladan, respublikada opera va balet san’atini yanada rivojlantirishning ustuvor yo’nalishlari sifatida milliy opera va balet san’atida ustoz-shogird an’analari va mahorat maktablarini rivojlantirish, opera va balet san’atidagi iste’dodli va yuqori malakali ijodkorlarning mahorat maktablarini tashkil etish, ana shunday maktab yaratgan ijodkorlarni davlat byudjeti hisobidan asosiy ish joyi orqali har oyda bazaviy hisoblash miqdorining 15 barobari miqdorida qo’shimcha rag’batlantirib borish va boshqa chora-tadbirlar belgilandi[195].

Yurtimizda madaniyat va san’at ravnaqi yo’lida amalga oshirilayotgan ishlar Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasida aks etgan ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan ustuvor choratadbirlarga nihoyatda hamohangdir. Mazkur islohotlar ezgulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan “Harakatlar strategiyasidan-Taraqqiyot strategiyasi sari” g’oyasining hayotiy ro’yobiga, “Yangi O’zbekiston - ma’rifatli jamiyat” konsepsiyasini amalga oshirishga hissa qo’shadi deb ayta olamiz. Har bir millat o’z madaniyat va san’atining qudrati bilan jahon tamaddunidan mustahkam joy egallaydi. Aynan mazkur soha taraqqiyoti mamlakatning kuch va salohiyatini, xalqning qadr qimmati, dunyodagi obro’-e’tibori hamda maqomini namoyon etuvchi muhim omillardan biri sanaladi[196].

[194] Haydarov A. Milliy madaniyat renessans poydevori // Yangi O‘zbekiston gazetasi. - Toshkent: 2020. B.6
[195] Mahmudov N. Xalqimiz ma’naviy olamini yanada yuksaltirishning mustahkam poydevori // Yangi O‘zbekiston gazetasi. - Toshkent: 2022. - B.6
[196] Nazarbekov O. Yuksak e’tibor va ehtirom bizga kuch, shijoat beradi // Xalq so‘zi gazetasi. - Toshkent: 2022. - B.4

Xulosa qilib aytganda, Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan ko’p asrlar mobaynida yaratib kelingan g’oyat ulkan, bebaho ma’naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko’tarildi. Mustaqillikka erishilgandan so’ng O’zbekiston rahbariyati, eng avvalo, xalqimizning ehtiyoji, orzu-istaklarini hisobga olib, azaliy bayramlarni tiklashga va yangi istiqlol bayramlarini shakllantirishga katta e’tibor berildi. Jumladan, O’zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.Karimov Farmonlari asosida “Navro’z”, “Ro’za hayiti”, “Qurbon hayit” lari rasman tiklanib, xalq o’rtasida keng nishonlana boshlanishi va istiqlolni sharaflaydigan bayramlar “Mustaqillik kuni” va “Konstitutsiya kuni” bayramlari joriy etildi.

Mustaqillik-yillarida milliy kino, teatr, muzey san’atining moddiy-texnik bazasini mustahkamlandi ular orqali o’tmishni, tarixni ko’rish, eslash, sezish, o’rganish va shuning bilan birga o’zbek xalq ijodining tiklanish va ravnaq topish jarayoni jadal sur’atlar bilan amalga oshirildi. Shuningdek, o’lkamiz tarixini ommaga yetkazish yoshlarimizda tushuncha xosil qilish uchun “O’zbekiston tarixi” telekanali faoliyati yo’lga qo’yildi.

Mustaqillik aynan shunday ezgu ishlarni amalga oshirishga, madaniy rivojlanishga imkoniyat yaratib berdi. Respublikamizda amalga oshirilayotgan madaniy islohotlaming barchasi inson kelajagiga, ma’naviyatiga mamlakatimiz yoshlari kamolotiga xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch. —T.: Ma’naviyat, 2008. B.141

2. Mansurov U., To’xtaboyev A. “O’zbekistonning madaniyati va sa’nati tarixi” O’quv qo’llanma TOSHKENT: “O’z kitob savdo nashryoti matbaa ijodiy uyi”, 2021. B.146

3. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz - kelajak yo’q. – T.: Sarq, 1998. B.18

4. Qoraboyev U., Soatov G’. O’zbekiston madaniyati ‘‘Tafakkur- Bo’stoni’’ T.:, 2011. B.168

5. Haydarov A. Madaniyat - milliy yuksalish poydevori. - Toshkent: Oltin meros press, 2021. B.478

6. To’ychiyeva S. Madaniyat va san’atimiz rivojidagi zarsahifalar // Yangi O‘zbekiston gazetasi. - Toshkent: 2022. B6

7. Mahmudov N. Xalqimiz ma’naviy olamini yanada yuksaltirishning mustahkam poydevori // Yangi O‘zbekiston gazetasi. - Toshkent: 2022. - B.6

8. Nazarbekov O. Yuksak e’tibor va ehtirom bizga kuch, shijoat beradi // Xalq so’zi gazetasi. - Toshkent: 2022. - B.4